

## Amaliyotda - 5 ta muhim tashabbus

Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash va Gidrotexnika qurilishi fakultetlari 3-bosqich talabalari ishlab chiqarish amaliyotining bo`sh vaqtlarini mazmunli va qizg`in o`tkazmoqdalar. 5 ta muhim tashabbus asosida, ikki fakultet amaliyot o`qituvchilari rahbarligida FUTBOL hamda SHAXMAT musobaqalari tashkil etildi. FUTBOL musobaqasi fakultetlar jamoalari uchrashuvi bilan boshlanib, so`ngra fakultetlar jamoalari yetakchi to`psurar o`yinchilaridan tuzilgan terma jamoamiz Oqoltin tumani 1-umumiy o`rta ta`lim maktabi o`qituvchilari uchrashuvi bilan davom ettirildi. Dastlabki uchrashuvda GIM fakulteti jamoasi g'alaba qozongan bo'lsa, mezbonlar bilan bo`lgan uchrashuvda esa terma jamoamiz g'alabasi bilan yakunlandi.



Tashabbusning 2-bosqichi aqlni charxlash, SHAXMAT o'yini bilan davom ettirildi. Bu borada ham xar ikki fakultet shaxmatchilari yetarlicha tafakkur soxiblari ekanliklarini yana bir bor isbot etishdi, musobaqa so`ngida SE va NSF kafedrası assistenti M.Berdiyev tomonidan talabalarga master klass o`tkazildi. Amaliyot davom etmoqda...



**TIQXMMI matbuot xizmati**